

## AKRIL POLIELEKTROLITLARI SINTEZI VA FIZIK-KIMYOVİY XOSSALARI TADQIQOTI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13883335>

**Yo'lliyev Dilshod Toji o'g'li**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, o'qituvchi.*

**Bekmurzayeva Nasiba O'tkirovna**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, 3-kurs talabasi.*

**Iskandarova Zuhra Ikrom qizi**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, 4-kurs talabasi.*

**Ulashova Dildora Elmurod qizi**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, 3-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari ishlab chiqarish chiqindilari va mahalliy xomashyodan foydalangan holda, yuqori sirt taranglik va qovushqoqlikka ega polimer gellar olish masalasi yoritib berilgan. Maqolada polimer chiqindilari va ularning hosil bo'lishi, polimer chiqindilarini qayta ishlab olinadigan mahsulotlarning fizik-kimyoviy xossalari va ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** chiqindini qayta ishlash, nitron tola, gidrolizlangan poliakrilonitril, kaliy akril polimeri, sirt tarangligi, termodinamik parametrlar.

## СИНТЕЗ АКРИЛОВЫХ ПОЛИЭЛЕКТРОЛИТОВ И ИССЛЕДОВАНИЕ ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИХ СВОЙСТВ

**Йуллиев Дилшод Тожи угли**

*Институт предпринимательства и педагогики Денова, преподаватель.*

**Бекмурзаева Насиба Уткировна**

*Институт предпринимательства и педагогики Денова, студент 3 курса.*

**Искандарова Зухра Икром кизи**

*Институт предпринимательства и педагогики Денова, студент 4 курса.*

**Улашова Дилдора Елмурод кизи**

*Институт предпринимательства и педагогики Денова, студент 3 курса.*

**Аннотация:** Результаты исследований, проведенных в данной статье, проливают свет на вопрос получения полимерных гелей с высоким поверхностным напряжением и вязкостью с использованием отходов производства и местного сырья.

*В статье говорится о полимерных отходах и их образовании, физико-химических свойствах и значении полимерных отходов.*

**Ключевые слова:** переработка отходов, нитроновое волокно, гидролизованный поликарилонитрил, калийакриловый полимер, поверхностное напряжение, термодинамические параметры.

## **SYNTHESIS OF ACRYLIC POLYELECTROLYTES AND STUDY OF PHYSICOCHEMICAL PROPERTIES**

**Yulliyev Dilshod Toji ugli**

*Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, assistan.*

**Bekmurzayeva Nasiba Otkirovna**

*Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, 3<sup>rd</sup>course student.*

**Iskandarova Zukhra Ikrom kizi**

*Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, 4<sup>rd</sup>course student.*

**Ulashova Dildora Elmurod kizi**

*Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, 3<sup>rd</sup>course student.*

**Abstract:** The results of the research conducted in this article shed light on the issue of obtaining polymer gels with high surface tension and viscosity using industrial waste and local raw materials. The article discusses polymer waste and its formation, physicochemical properties and the importance of polymer waste.

**Key words:** waste recycling, nitron fiber, hydrolyzed polyacrylonitrile, potassium acrylic polymer, surface tension, thermodynamic parameters.

Inson ehtiyojlari tobora o'sib borayotgani ortidan bugungi kunda bir qator ekologik muammolar ham kelib chiqmoqda. Xususan, qattiq turdag'i chiqindilarning ortib borayotganligi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu turdag'i chiqindilar orasida polimer chiqindilari salmoqli ulushga ega. Bu allaqachon umuminsoniy muammoga aylanib ulgurdi. Umuman, polimer chiqindilarining hosil bo'lish manbalariga to'xtaladigan bo'lsak, ular ikki guruhga bo'linadi:

1. Sanoat chiqindilari - sanoat korxonalarida qayta ishlash jarayonida olingan va davlat standarti talablariga mos kelmaydigan buyumlar hisobiga paydo bo'ladi.


2. Foydalanish muddatini o'tab bo'lgan chiqindilar. Bu turdag'i chiqindilar maishiy chiqindilar guruhiга mansub bo'lib, ular uy-ro'zg'or buyumlari, polietilen plyonkalar, sellofan paketlar, transport vositalarining polimerdan yasalgan ehtiyot qismlari, bolalar o'yinchoqlari, qadoq uchun idishlar, ruchka, tibbiyot shprislari va

hokazolarning eskirishi hisobiga hosil bo‘ladi. Dunyo miqyosida bir yilda jami 25•109 tonna chiqindilar hosil bo‘ladi. Shundan rezina shinalaridan hosil bo‘ladigan chiqindilar miqdori 7 mln tonnagacha etadi. Lekin ularning atigi 1/5 qismi qayta ishlanadi.

Bu borada O‘zbekistonda ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2019-yil 17-apreldagi qarori bilan “2019-2028-yillarda O‘zbekistonda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish strategiyasi” tasdiqlangan. Qarorga muvofiq, yaqin kelajakda chiqindilarni qayta ishslashning samarali va zamonaviy tizimini yaratish ko‘zda tutilgan.

Ikkilamchi mahsulotlarni qayta ishslash va raqobatbardosh xom ashyolar olish maqsadida laboratoriya sharoitida “Navoiyazot” AJ korxonasida ishlab chiqarilgan nitron tola chiqindisidan foydalanildi va kaliy gidroksid bilan gidrolizlandi. Nitron tola chiqindisi va 10% li KOH ning suvdagi eritmasi asosida reaksiya olib borildi. Kaliyli gelga o‘xhash akril polimerini optimal sintez sharoitlari (harorat, reaksiya vaqtqi, boshlang‘ich komponentlar nisbati, konsentratsiyasi) tanlandi. Olingan K-K-9 eritmasining fizik-kimyoviy xususiyatlari o‘rganildi.

Akrilonitril, metilmekrakrilat va itacon kislotaning uchlamchi sopolimeri bo‘lgan nitron tola chiqindisining kaliy gidroksid bilan gidrolizlanishida quyidagi sxema (1) bo‘yicha gelga o‘xhash suvda eruvchan kaliy akril polieletroliti hosil bo‘ladi:



Sintez qilingan kaliyli poliakrilonitril polimerining bir qator fizik-kimyoviy xususiyatlari tadqiq qilindi. Buning uchun sintez qilingan moddaning aniq konsentratsiyali eritmalari olindi. Tayyorlab olingan K-K-9 polieletrolitining 0,125%, 0,25%, 0,5% va 1% li eritmalari 20, 30, 40, 50°C haroratlarda sirt tarangligini aniqlandi. Sirt taranglikni aniqlashda etalon sifatida distillangan suvdan foydalanildi.

**1-jadval.**

**Olingan kaliyli akril polimerining 0,125%, 0,25%, 0,5% va 1% li eritmalari sirt tarangligi.**

T, °C	<b>K-K-9 eritmasi sirt tarangliklari, erg/sm<sup>2</sup></b>			
	<b>0,125 %</b>	<b>0,25 %</b>	<b>0,5 %</b>	<b>1%</b>
<b>20</b>	38,51	32,43	28,60	27,35
<b>30</b>	36,40	31,60	27,04	26,12
<b>40</b>	35,40	30,74	26,58	25,79
<b>50</b>	28,20	26,88	22,64	21,35

Sirt tarangligi bo'yicha olingan natijalardan shuni ko'rishimiz mumkinki temperatura va konsentratsiya ortishi bilan sirt tarangligi kamayib bordi. Sirt tarangligi stalagmometr asbobi orqali aniqlandi.

Sintez qilingan kaliyli poliakrilonitril polimeri eritmasining ba'zi termodinamik parametrlari aniqlandi.

### **3-jadval**

<b>C, %</b>	<b>-ΔG, J/mol</b>	<b>ΔS, J/mol grad</b>	<b>ΔH, J/mol</b>
<b>0,125</b>	44,872	0,2086	101,82
<b>0,25</b>	39,708	0,154	81,742
<b>0,5</b>	35,456	0,1256	69,745
<b>1</b>	32,891	0,1092	61,714

Eritma konsentratsiyasi ortishi bilan T kritik, ortib borayabdi, ΔG, ΔS va ΔH lar kamayib borgani kuzatildi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, gidroksil ionlarining kontsentratsiyasi ko'rsatkichi pH=12 dan past bo'lsa, to'liq gidrolizga erishish imkonii bo'lmaydi, shu paytda pH qiymati 13,5 dan yuqori bo'lsa, ishqor -KOH ortiqcha sarf bo'lishiga olib keladi. Poliakrilonitril xom ashyosini gidrolizlash jarayonining mohiyati nitril guruhlari -CN, avval amid -CONH<sub>2</sub> ga, keyin esa -COOK ga aylanishidir. Poliakrilonitril polimeri molekulasida qancha ko'p -COO guruhlari hosil bo'lsa, -COO zaryadlangan guruhlarning bir-biridan elektrostatik itarilishi tufayli u shunchalik ko'p chiziqli ravishda ochiladi, reagent shunchalik faol bo'ladi.

Yuqori molekulalari suvda eruvchi polimerlarning ba'zi bir fizik-kimyoviy xossalari, ularning eritmalaringin qovushqoqligi ( $\eta$ ), zichligi ( $\rho$ ), muhit vodorod ko'rsatkichi (pH) ga va kontsentratsiyaga bog'liqligi o'zgarishini orqali o'rganildi va bu parametrlarning qiymatlari suvda eruvchan polielektrolit tarkibiga, funksional guruhlarning tabiatiga, nisbatiga va kontsentratsiyaga bog'liq

ekani ko'rsatildi. O'rganilgan yuqori molekulali polimerlar polielektrolitlik xususiyatga ega ekanligi isbotlandi. Polimerning molekulyar massasi aniqlandi va unda olegomer mavjud emas degan xulosaga kelindi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Boltayeva, S. (2023). GIDROLIZLANGAN POLIAKRILONITRILNING EPIXLORGIDRIN BILAN O'ZARO TA'SIRI JARAYONINI O'RGANISH, OLINGAN BIRIKMALARNING TUZILISHINI ANIQLASH. *Central Asian Journal of Education and Innovation*, 2 (11), 71-76. <https://www.in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/22791> dan olindi
2. Qodirov, A. A., Qodirov, N. A., Eshmuhamedov, M. A., Yulliev, D. T. U. va Ibodullaeva, G. X. (2022). O'zgartirilgan AKRILIK POLIELEKTROLITLARNING SINTEZI VA XUSUSIYATLARINI O'RGANISH. *Universum: Muhandislik fanlari*, (3-5 (96)), 13-17.
3. Yo'lliyev, D.T. Ro'ziyeva, O'.M. Raxmanov, B.A. (2023). BURG'ULASH SUYUQLIKLARINI STABILLASH UCHUN GEL-POLIMERLARNI OLİSH VA QO'LLASH. *SCHOLAR*, 1(6), 74-78.
4. Yo'lliyev Dilshod Toji o'g'li, Ergashev Sayfiddin Panjiyevich va Amirova Samina Ma'rufjon qizi. "ISHQORIY MUHITDA GIDROLIZLANGAN POLIAKRILONITRILNING FIZIK-KIMYOVIY XOS SALARI TADQIQOTI" *Fan va innovatsiyalar* 3.Maxsus 29-son (2024-yil): 260-263.